

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“Jahon tarixi va arxeologiya” kafedrası

**Qurbonova Lolaning**

“5220200 tarix(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)” ta'lim  
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun  
**“Ikkinchi jahon urushi arafasida Xitoy”**  
mavzusida yozgan

**Bitiruv malakaviy  
ishi**

Ilmiy rahbar: t.f.n. F. Sh.Rahmonov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti

dekani \_\_\_\_\_ dots. B. Saidov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

Qarshi shahri, 2012 yil

## **Mundarija**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>1. Xitoyda birinchi fuqarolar urushi.....</b>	<b>6</b>
1.1. Shimolda yurishdagi g'alaba.....	6
1.2. Xitoy ishchi - dehqonlar armiyasining tuzilishi.....	24
<b>2. Ikkinchi jahon urushi arafasida Xitoyda siyosiy vaziyat...32</b>	
2.1 Yaponiya bosqinchilarining Xitoyda qurolli hujumi.....	32
2.2. Yaponiyaga qarshi umumxalq urushining boshlanishi...46	
<b>Xulosa.....</b>	<b>56</b>
<b>Tavsiya.....</b>	<b>58</b>
<b>Adabiyotlar ro'xati.....</b>	<b>59</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Birinchi johan urishi to'gab kelayotgan paytda ham Xitoy qaloq yarim feodal hamda yarim mustamlaka mamlakat edi. Qishloqda pomishchik va qulaqlar hukumronlik qilar, iqtisodiy hayot jumladan savdo- sotiq chet- el monopoliyalari nazorati va qaramligida edi.<sup>1</sup>

Yurtboshimiz I.A. Karimov takidlaganidek: "Xalqlarning ozodlik, mustaqillik, baxt- saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu qarori hayotdagi chuqur o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir".<sup>2</sup>

Xitoy va uning xalqi qo'lga kiritgan yutuqlari o'rganish tarix fanining dolzarb muhim masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Mavzuning dolzarbligi sifatidan Xitoyni ikkinchi johan urishi arafasidagi siyosiy mavqei va yapon bosqinchilariga qarshi kurash tarixini o'rganishi, ularni ya'ni adabiyotlar asosida tahlil qilish va tizimlashtirish asos qilib olindi.

### **Bitiruv- malakaviy ishning maqsad va vazifalari.**

Ikkinchi johan urushi arafasida Xitoyni ichki va tashqi siyosatini, mamlakatdagi fuqarolar urushini yapon bosqinchilariga qarshi kurashini manba va adabiyotlarda yoritilishini tarixiy aspektda kompleks tarzda tadqiq etish ishining asosiy bosh maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning yuqoridagi qayd etilgan maqsadlaridan kelib chiqqan holda bitiruv- malakaviy ishda qo'ydagilar asosiy vazifalar tarzida belgilab olindi:

- o'rganilayotgan mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish uchun mavzuga oid ilmiy tarixiy adabiyotlarini to'plash va tahlil etish;
- Xitoydan birinchi fuqarolar urushi jarayonlarini yoritib berish;
- Shimol yurishidagi g'alaba va uning ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Xitoy ishchi - dehqonlar armiyasining tuzilishi va uning faoliyatini ilmiy tahlil qiliish;
- Yaponlarga qarshi umumxalq harakatini sabab va oqibatlarini yoritib berishdan iboratdir.

### **Mavzuning o'rganilish darajasi.**

Ikkinchi johan urushi arafasida Xitoyda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu mamlakatda Yapon bosqinchilariga qarshi kurash jarayoni kuchayib ketdi.

---

<sup>1</sup> Новая история стран. Европы и Америки Второй период. Под редакции Е.Е, Юровской и И.М. Кривогуза. М.1998. 216-217

<sup>2</sup> Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T "O'zbekiston" NMIU. 2011. 416- bet.

Biz yuqoridagi masalani yoritishda turon davrdagi materiallarni o'rganib qo'ydagi fikriga keldi. Ya'ni ikkinchi jahon urushi arafasida Xitoy tarixini yoritishda turon adabiyotlarni ilmiy tahlil qilishga harakat qildik.

Jumladan G. A. Xidoyatov, X. F. G'ulomov, Z. R. Nuriddinov, V. A. Radkevich, V. V. Aleksandrov, X. Sinkotta va Chan Kay Shi kabi olimlarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlil qilindi.<sup>3</sup> Shuningdek bir qancha vaqtli matbuotda va enternet materiallardan ham foydalanildi.

### **Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.**

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi avvalo shundan iboratki, maskur mavzu ilk bor bitiruv - malakaviy ish sifatida ilmiy adabiyotlar asosida izchil tadqiq etilmoqda. Biz ilmiy istimolga ilk bor olib kirilayotgan materiallar turon tarixiy manbalar va adabiyotlarga tayangan holda o'z fikr mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik:

- Xitoydagi birinchi fuqorolar urushi va uning oqibatlarini yoritib berdi;
- Shimol yurishidagi, Xitoy xalqi g'alabasini tarixiy ahamiyati ochib beradi;
- Xitoy ishchi dehqonlar armiyasining tuzilishi va uning faoliyati masalalari izchil tahlil qilindi;
- Yapon bosqinchilarining Xitoyga qarshi qurolli hujumi va uni natijalari yoritib berildi;
- Yaponiyaga qarshi umumxalq harakatining tarixiy ahamiyati ochib berildi.

Bitiruv - malakaviy ishning tadqiqot qismi va xulosa qismida keltirilgan malumotlardan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, o'rta maxsus kasb - hunar kollejlari tarix fani darslarida o'lka tarixini o'rganishda foydalanish mumkin.

### **Ishning aprabasiyasi.**

Bitiruv - malakaviy ish Qarshi Davlat universiteti Tarix fakul'teti "Jahon tarixi va arxeologiya" kafedrasida qoshidagi "Yosh tarixchi" to'garagida ma'ruza qilingan va kafedra yig'ilishlarida muhokamadan o'tgan.

### **Bitiruv malakaviy ishning to'zilishi.**

Ish kirish ikki bob, to'rt fasl, xulosa, adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

---

<sup>3</sup> Г.А. Хидоятлов, Х.Г. Гуломов. Всемирная история. Новейший период. Т. 1999г. Z.R. Nuriddinov. Osiyo va Afrika mamlakatlarining yangi va eng yangi tarixi. Т. 1982-у. В.А. Радкевич. Великий шелковый пути. М.1990г. В.В. Александров. Новейшая история стран Европы и Америки 1918- 1945 г. И «Высшая школа» 1986. Х. Sinkkota Amerika tarixining asoslari. Т.1998. Чан Кай- ши. Судьба Китайского Бонапарта. М.,1989.

## **1. Xitoyda birinchi fuqoralar urushi.**

### **1.1. Shimol yurisidagi g'alaba**

Birinchi jahon urushi davrida Yaponiya imperializmi anfuistik militaristlarga tayanib markaziy Pekin hukumatini o'z kontroli ostiga olib, Xitoyni o'ziga buysundirishga qaratilgan birqanch tadbirlarni amalga oshirdi. Xolbuki, Amerika imperealistlari Amerika nuqtai nazarini tarqatish hamda Yaponiya militarist davlatiga qarshi chiqish uchun bir vaqtlar AQSHda o'qigan Xitoy intellegentsiyasidan foydalandi. birinchi jahon urushi tamom bo'lgandan so'ng AQSH Angliya bilan birlashib Yaponiyaning Xitoyni butunlay bosib olish planiga qarshi chiqdi. Shuning uchun ham Yaponiya Xitoyda o'z ta'sirini kengaytirish ishlarini bir qancha vaqtlarcha to'xtatib turishga majbur bo'ldi, natijada Amerika Angliya tarafdori bo'lgan chjili militaristlar to'dasi esa o'z tasirini kuchaytirdi.<sup>4</sup>

Vatanparvarlik "4-may harakati" davrida anfuistik militaristlar to'dasi o'z harakatlari bilan xitoy xalqining nafratini qo'zg'atgan edi.

Bo'ndan foydalangan chjili militaristlar to'dasining yo'l boshchisi U Pey-fu yaponlar tarafdorlari bo'lgan to'daning xoinligiga qarshi kurash uchun urinib anfuistik to'daning Pekin hukumatidagi ta'sirini yo'q qilish shiorini o'rtaga tashladi. Anfuistik minitaristlar to'dasining tez orada mag'lubiyatga uchrashini payqagan yapon imperealistlar shimoliy-sharqda yangi bir to'dani Sjan Szo-men boshchiligidagi finyan militaristlar to'dasini tashkil qiladilar anfuistik militaristlar to'dasi o'zining asosiy kuchlarini ichki Mug'uliston rayoniga olib ketdi, u yerda Chejan Szo-Livin ta'sirini susaytirish shu bilan chjili va finyan militaristlar grupalarining birlashuviga yordam berishni ko'zladi.

1920-yilda Pekinga yaqin yerda chjili va anfuistik militaristlari to'dalari o'rtasida urush harakatlari boshlandi, natjada Anfuistik qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Pekin hukumati chjili va finyan militarist to'dalarining nazorati ostiga o'tdi. Bu g'alaba uchun U Pey-fu Angliya – Amerika imperealistlarining katta iltifotlariga muyassar bo'ldi.

Yapon militaristlari Pekin hukumatida chjili to'dasi ta'sirini susaytirishni ko'zlab, chjan szon – menni quvvatladilar. Chjan szo men yaponiya tarafdorlari bo'lgan byurokratlarga o'z hukumatini tuzishga yordam berdi. U Pey-fu bunday yaponiya tarafdorlari bo'lgan hukumat tizimiga tusqinlik qilish uchun zo'r berib urinib ko'rdi. Oqibatda chjilin militaristlar to'dasi ham, finyan militaristlar to'dasining ham etibori tushib qoldi. 1922-yilda Pekin yaqinida bo'lib o'tgan jang natijasida finyan armiyasi shanhay luonidan nari uloqtirib tashlandi, chjili to'dasi esa Pekin hukumatini to'la control qilib turish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Birinchi jahon urushi tamom bo'lmasdan avval Xitoy burjuaziyasi urushni tugatishni talab qildi. 1919-yili fevrald Shanhayda anfuistik militaristlar nazoratidagi Pekin hukumati vakillari

---

<sup>4</sup> Xitoyning yangi tarixidan ocherklar. T-1959 y. 82-bet.

bilan janubiy –g'arbiy militaristlar nazoratidagi Kanton harbiy hukumati o'rtasida sulh to'g'risida muzokaralar boshlandi.ikkila hukumatda ham janub va shimolda ham o'zgarish yuzberdi.1920-yilda Kanton hukumati yo'q bo'ldi.1921-yilda Sun Yat-sen Kantonga qaytib favqulotda president vazifasini o'z zimmasiga oldi. Lekin Sun Yat– sen boshchiligidagi Kantun hukumati hali ham guandun militaristi Chen Szyun-men nazoratda edi.

1922-yili Chen Szyun-men chjili militaristlaridan Sun Yat-sen bilan aloqani o'zish to'g'risida topshiriq oldi. Sun Yat-sen yana Kantondan ketishga majbo'r bo'ldi.xuddi anashu vaqtda ishchilar va xalq ommasida imperealizm va militarizimga qashi norozilik kuchaydi,ishchilar harakati esa rivojlana boshladi.Sun Yat-sen bu ahvolni ko'rdi.shuningdek u faqat Chen Szyun-menning chjili militaristlar to'dasi bilan aloqa bog'langanligina emas balki bu militaristlar orqasida imperealistlar turganini va rag'barlik qilganini ham payqadi.Shunday qilib Sun Yat-sen murakkab vaziyatni ravshan tushundi.

Xolbuki,chjili militaristlari fintyan militaristlar to'dasi ustidan g'alaba qozonib va Angliya –Amerika imperealistlarning iltifotidan foydalanib, Kanton militaristlari bilan ham aloqa bog'ladilar va Sun Yat-senni chetlashtirdilar.1923-yili chjili militaristlarining tuda boshlig'i Sao Kun parlament azolariga pora berib ularni o'ziga qaratdi, prezident bo'lib saylandi, ammo bu xol hammani huningqazablantirdi. Bu g'azablanishlardan foydalangan Chjan Szo-men va Duvan Si-juj yapon iperealistlarining yashirin ravishda qo'llashlari bilan o'z faoliyatini ko'chaytirib chejiliklarga qarshi ittifoq tuzdilar .

O'z – o'zidan ma'lumki ,Angliya- Amerika imperialistlari ham o'z pozitsiyalarini boy berishni istamadilar va chjili militalistlariga beradigan yordamlarni maksimal darajada oshirdilar.xitoyda har xil militalistlar to'dalari o'rtasidagi qarama –qarshilik va kurash dedi. Mao Sze-dun har xil imperealistik davlatlar o'rtasidagi qarama- qarshilik va kurashni aks ettiradi. Shuning uchun har xil imperealistik mamlakatlar o'rtasidaga kurash natjasidagi Xitoy parchalangan bir vaqtda militarist to'dalari o'rtasida o'zaro kurashuv imkoniyati yo'q, ular o'rtasidagi har xil kompromisslar faqat vaqtincha bir narsadir. Hozir erishilgan vaqtli kompromiss oqibatida yangi va yanada kattaroq urush bo'lishi mumkin.

1917-yilda Rossiyada Oktabr revolyutsiyasining g'alaba qozonishi imperealistik davlatlarni vahimaga soldi. Ichki komtrivusiyasini qo'llab- quvvatlash uchun va Sobiq Sovet mamlakatini yo'q qilishga o'rinib 1918-yili imprealistik davlatlarning armiyalari g'arbdan va sharqdan Sovet Rossiyasiga bostirib kirishdi . Yaponiya va ikki tomondan hujum qila boshladi:bir tomondan u o'z qo'shinlarini Sibirga kiritdi, ikkinchi tomondan esa sotqin xitoy militaristlarini dushmandan birgalashib muxofaza qilib yuzasidan bitim deb atalgan yashirin kelishuvga tortdi. Yaponiya butun vajdan foydalanib okupatsiya qilish va ilgari chor Rossiyasiga

berilgan alohida huquqlarini o'ziga olish maqsadida o'z qo'shinlarini Shimoliy Manchjuriyaga kiritdi.

Angliya, AQSH va boshqa harbiy davlatlar indamasdan Yoniyanning bu harakatlariga rozi bo'lishdi. Shunday qilib, sotqin xitoy militaristlari imperealistik davlatlar tomonidan Sovet Rossiyasiga qarshi kurashga tortildi. Holbuki, Sovet hukumati barpo bo'lgan kundan boshlab o'zining Xitoy bilan chor Rossiyasi o'rtasida o'zilgan maxfiy shartnomaridan voskechganini va chor Rossiyasi hukumron doiralarining Xitoyda zo'rlik bilan barcha alohida huquqlarini xitoy xalqiga berishni istaganini ochiq aytdi. Bulardan tashqari Sovet hukumati Xitoy hukumatiga do'stona munosabatlar o'rnatish to'g'risida muzokaralar boshlashni taklif qildi. Sotqin xitoy militaristlari imperealistik davlatlarining amri bilan Sovet Rossiyasining takliflarini rad qilish bilangina cheklanmay balki Sovet Rossiyasining bu samiyimi taklifini xitoy xalqidan yashirdilar. 1919-yil iyulda Sovet Rossiyasining hukumati xitoy xalqiga Shimoliy va Janubiy Xitoy hukumatlariga qarata yozgan birinchi murojaatini e'lon qilib Xitoy bilan Sovet Rossiyasi o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatish hamda teng huquqli shartnoma tuzishni taklif qildi.

Shunigdek murojaatda Sovet Ittifoqi va Xitoy xalqlari o'rtasida do'stlik o'rnatish to'g'risida xitoy xalqida qarata aytilgan chaqiruv ham bor edi. Sotqin militaristlar yarim yildan oshiq vaqt ichida bu murojaat to'risida ham indamadilar faqat 1920-yil aprelda bu murojaatning butun teksti xitoy gazetalariga bosildi. Uzoq vaqt ichida imperialistlar tomonidan izilib ketgan xitoy xalqi bu murojaat bilan tanishib chiqishi bilanoq uni qizg'in ma'qulladi va Pekin hukumatidan tezlikda xitoy sovet do'stlik munosabatlari o'rnatishini talab qildi.

1920-yil oktabrda Sovet Rossiyasi huningdeklaratsiya e'lon qildi va bu deklaratsiyada Chor Rossiyasi Xitoydazo'ravonlik bilan olgan hamma huquqlaridan Sovet hukumati voskechganini hammaga ma'lum qildi. Xitoy bilan Sovet Rossiyasi o'rtasidagi do'stlik munosabatlari o'rnatishga yana chaqirdi. Ammo sotqin militaristlar nazoratlar bilan bir yoqadan bosh chiqaruvchi Pekin hukumati Sovet Rossiyasi taklifini qabul qilishga jur'at eta olmadi. Sovet Rossiyasi hukumati tezroq do'stlik munosabatlar o'rnatish maqsadida o'z vakillarini bir necha marta Xitoyga yubordi. Ammo imperealistik davlatlar bu ishga ongli ravishda to'stinlik qilganliklari sababli Pekin hukumati hamma vaqt muzaakarodan o'zini chetga olib turdi. 1922-yil avgustda Sovet hukumati o'z vakilini uchinchi marta Pekinga yubordi, uni bu yerda mehnatkashlarning 20dan oshiq ommaviy tashkilotlari qizg'in tabrikladi.

1922-yil oktabrda Qizil armiya va Vladivostokni ozod qildi. Shunday qilib, imperialistlarning Sovet Rossiyaga qarshi boshlangan qurolli barbod bo'ldi. 1922-yil dekabr oxirlarida Sobiq Sovet Sotsialistik davlatlar bu yangi davlat tuzilganini guyo payqamagandek bo'lib qololmadilar. 1923 – yanvarda Sobiq sovet Ittifoqi hukumati o'z vakilini yana Xitoyga yubordi. Sovet vakili 1923- yili sentabrda Pekinga keldi., bu yerda uni xitoy xalqi qizg'in

tabrikladi. Pekin hukumati faqat xalq ommosining talabi tufayli sovet vakili bilan muzokara boshladi. Ammo Pekin hukumati imperialistik davlatlar tasirida muzokorani ataylab chuzdi, uni badbod qilishni ko'ladi.

Xitoy xalqi Pekin hukumatining bundayni ochiq qoraladi. Pekin studentlari yana nomayishga chiqdi. Shartnomani imzolash 1924- yil 31- maygacha chuzildi. Pekin hukumati faqat xalq ommosining siquvi bilan sobiq Ittifoqi va Xitoy respublikasi o'rtasidagi masalani xal qilishning umumiy prinsiplari to'g'risidagi bitimni imzoladi. Shu vaqtdan boshlab Xitoy bilan Sobiq Sovet Ittifoqi o'rtasida normal diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Sovet- xitoy do'slik munosabatlarini o'rnatish maqsadida ko'lagan sovet vakili Xitoyda bo'lishi Sun Yat- sen va boshqa a'zolar diqqatini jalb etdi. Xitoy bilan o'rtasida normal munosabatlar o'rnatilishi Xitoyda ishchilar harakatining rivojlanishiga va Komunistik partiya ta'sirining olib borishiga yordam berdi. Bu voqealar ta'sirida Sun Yat- sen va boshqa a'zolar bilan komunistlar o'rtasida yaqinlashish boshlandi. 1923- yil 7- fevralda bo'lgan qonli voqeadan keyin Xitoyning yosh Komunistik partiyasi agar birlashib kurashishi ushun mamlakatdagi boshqa demokratik kuchlar bilan birlash olmasa xitoy rivalyutsiyasi g'alaba qozona olmasligini tushundi. Shuning uchun u Sun Yat-sen rahbarligidagi gomindon bilan ittifoq tuzish va shu bilan xitoy ishchilar sinfini mamlakatdagi boshqa demokratik kuchlar bilan birlashtirish uchun barcha kuchlarni sarfladi.

1923- yil iyunda komunistik partiya Kantonda o'zining III- sezdini chaqirdi bu sezda kompartiya bilan gomindon o'rtasidagi ittifoq masalasi markaziy problema bo'ldi. Sezda ikkita asosiy hato tanqid qilindi. Birinchi xato shundan ediki, Chen Du- eyu boshchiligidagi kapitulyantlar burjua- demokratik revolyutsiyasida ishchilar sinfining rahbar rolini inkor qildilar va partiyaning hamma ishini gomindonga buysundirishni talab etdilar. Ikkinchi xato shunda Iborat ediki ,Chjan Go-tao boshchiligidagi sektantlar faqat ishchilar sinfini revolyutsion deb hisobladilar va shuning uchu ham komunistlar, ishchilar, dehqonlarning lomindanga kirilinga etibor qildilar .Sezd haqiqiy ahvolga qarab lomindanni ishchilar ,dehqonlarva milliy burjuaziya ittifoqiga aylantirish uchun komunistlarni lomindanga kirishga chaqirish to'risida qaror qabul qildi:shu bilan birga sezda tashkiliy va siyosiy masalalarda komunistik partiyaning mustahkamligini saqlab qolishga chaqirdi.

Sun Yat-sen Xitoy komunistik partiyasining yordami bilan lomindonni qaytadan qurdi va bu ikki partiya o'rtasida hamkorlik o'rnatdi.<sup>1</sup> 1924-yil yanvarda Kantonda yig'ilgan lomindanning I sezdida demokratik revolyutsiyaning programmasi qabul qilindiva uchta yagona siyosat: Sovet Ittifoqi bilan ittifoq bo'lish hamda ishchi va dehqonlarni qullab – quvvatlash siyosati belgilandi. Mao Sze-dun, Lin Bo-uzuy va boshqalar bu sezda qatnashdilar, unga rahbarlik qilib katta rol uynadilar .ular Sun Yat-senga va lomindaga so'l qismiga to'g'ri revolyutsion yo'lga o'tishda

yordam berdilar. Xitoy Komunistik partiyasi amalgam oshirayotgan yagona rivalyusion frotning siyosati va gomindonning qayta qurilishirivaiyusion harakatining yanada sabab bo'ldi.

1923- yil 7- fevraldagi qonli voqealardan keyin har xil joylardagi militaristlarning tinch aholini ko'plab o'ldira boshlaganlari va jazolanganliklari natijasida ma'lum bir vatgacha ishchilar harakati rivojlanmay turar edi. 1924- yil Xitoy Komunistik partiyasining aktiv faoliyati sezila boshladi va mamlakatda ishchilar yanada kattaroq kuch bilan yuksalib bordi. Gomindon qayta qurilganidan keyin uning Markaziy Kametiti qoshida ishchilar bo'limi ta'sis etildi, bu bo'limning ishiga aslida komunistlar rahbarlik qildi. Shuning uchun ham ishchilar harakati birinchi galda Guandun viloyatida joylandi. Dehqonlar harakati ko'pdan beri guandunda o'z bazasida edi. U Dunuzon rayonida bo'lib, bu yerda dehqonlar harakatining atoqli rahbari komunist Pen Bay ish olib bordi. Militarist Chan Szyun –min qurolli kuchlar bilan dehqonlar ittifoqlarini tarqatib yuborishi munosabati bilan bu yerda ham dehqonlar harakati vaqtincha zaiflashib qolgan edi.

---

<sup>1</sup>.Г.А Гидолятов , Х.Г Гуламов.Всемирня история. Новеший период. Европа И,С,ША посли второй мировой войне (1945 1995г) Т1999. стр. 240/241

Gamindan qayta qurilgandan keyin Markaziy Kometit qoshida Pen Bay boshchiligidagi dehqonlar bo'limi ham tuzildi. 1923- yil fevral voqealari yosh Xitoy Komunistik partiyasi uchun saboq bo'ldi. Komunistik partiya xitoy xalqi o'z qurolli kuchlariga ega bo'lmay turib, demokratik huquqlar butunlay bo'magan bir sharoitda tish- tirnog'gacha qurollangan reaksiya ustidan g'alaba qozona olmasligini tushundi. Sun Yat- sen SSSRning do'stlik maslahatini qabul qilib, gomindonni qayta kurish davrida qurolli kuchlar tashkil qilish uchun sharoit tayorladi.

1924-yil mayda gomindanning rivalyutsion harbiy maktabi ta'sis etildi. Sovet maslahatchilari, shuningdek xitoy kommunistlaridan Chjou En- lay va Szyan- in so'l gomindachilardan Lyao Chjunkay va Den Yanda bilan birga bergan yordamlari va rahbarlik ko'rgazmalari tufayli Xuanpu harbiy maktabida ko'plab harbiy rivalyutsion kadrlar tayorlandi. Shu vaqtda Shimoliy Xitoyda chjili militaristlari va ularning dushmanlari o'rtasidagi kurash tobora kuchaymoqda edi. 1924- sentabrda U Pey- fu ikkinchi chjili fintan urushini boshladi.

Chjili to'dasida Sao Kun va U Pey- fuga qarshi chiqqan va allaqachon Chjanmen bilan ittifoq bo'lgan Fin Yuysyan boshliq gruppaga ajralib chiqdi. U Pey- fu Shanxayguanda jang qilib turgan vaqtda Fin Yuysyan o'z amiyasini kutilmagan paytda Jekedan Pekinga olib bordi va bu yerda hukumatni ag'darib, sh bilan militarislarning o'zaro urishida xotima berdi.

Sao Kun va U Pey- fuga qarshi chiqqan qo'shinlar urishni tamomlab, Shimolda hukumatni saqlab qolish maqsadida Duan Si- juyni vaqtincha hokim qilib ko'tardilar. Fin Yuy- sen ro'y bergan vaziyatni muhokoma qilish uchun Sun Yat- senni Shimolga chaqirdi.

Sun Yat- sen shimolga junash oldidan teng huquqli bo'magan sharnomalarni bekor qiladigan butun xalq madadiga xolda birlashtirilgan yangi Xitoyni yaratish masalalarni hal qila oladigan Milliy manilisni chaqirishni talab qiladigan manifestni e'lon qildi. Hamma yerda Milliy majlis chaqirishni tezlatish maqsadida birin- ketin xalq konferinsiyalari chaqirila boshladi. Sun Yat- sen Pekinga keldi, lekin bu yerda tobi qochib, 1925-yil 12- martda vafot betdi. U o'lim to'shagida yotgan bo'lsa ham ikkita muhim masalaga: Milliy majlisni chaqirish vat eng huquqli bo'lmagan sharnomalarni bekor qilish masalalarini hal qilishda qatnashdi. U o'z fikirdoshlari revolyusionerlarga bu masalalarni eng yaqin fursatga hal qilishni vasiyat qilib qoldirdi sun Yat- sen o'lmasdan oldin SSSR Markaziy ijroiya Kometitiga murojat yozib, Xitoy va Sobiq Savet Ittifoqining ikkala o'lug' xakqi o'rtasida yadindan hamkorlik ba do'stlik o'rnatishga katta umid qilganini bildirdi. Xitoy xalqi bu o'lug' rivalyusion arbobni o'z orasidan yuqotish munoabati bilan bo'lgab umumxalq motami keng siyosiy kompaniyaga aylandi.

Sun Yat- sen Shimolga ketganidan keyin Dun- szyan havzasida joylashib olgan Chen Szyan- min ingliz imperialistlari va Duan Sijuyga tayanib Kantonni bir necha marta bosib olmoqchi bo'lgan edi. Guandun viloyatida Chen Szyan- min tomonidan qo'llab quvvatlangan boshqa riaksion qurolli kuchlar ham harakat qila boshladilar. 1926-0 yil iyunda butun Guansu viloyati milliy hukumatga buysundi. Shunday qilib, Guandun Guansun viloyatlarida revalyusion baza tuzish ishlari tamom bo'ldi.

Teng huquqli bo'lmagan shartnomalarni bekor qilish va Milliy majlis chaqirish uchun boshlangan xalq harakati emperialistlari va militaristlarga qarshi kurashda xitoy xalqining revalyusion ruhini ko'tarishga yordam berdi. Revalyusion harakat butun mamlakatni qamrab oldi va 1925- yil mayda Shanxayda ingliz va yapon imperialistlariga qarshi katta ish tashlash boshlandi.

15- mayda yapon imperialistlari qurolli kuch bilan Shanxaydagi yapon to'qimachilik fabrikasi ishchilarning ish tashlashni komunist ishchi Gu chjen- xunni otdilar. Ish tashlagan ishchilarga moddiy yordam bergan studentlar ham xalqaro politsiya boshqarmasi tomonidan quvg'in qilindilar va qamoqqa olindilar 30- mayda studentlar Shanxay konsessiyasi teritoriyasida ishchilar ila birdamlik belgisi bilan nomoyish qildilar va politsiya boshqarmasi ishgi oldida to'planib "Bitsin imperializm" degan shior tashladi. Angliya politsiyasi xalqni ota boshladi, natijada ko'p kishilar o'ldi va yarador bo'ldi. Bu voqea butun Shanxay aholisini darg'azab va narozi qildi. Bir necha kun davomida Shanxay ishchilari, studentlari va shahar aholisi imperialistlarining namoyishkorona bildirdilar, lekin Angliya.Amerika, Yaponiya polisiyasi

ularni otishni davom ettirdi. Keyin ishchilar, studentlar va mayda burjuaziya umumiy ish tashlash e'lon qildilar.

1925- yil 30- mayda shanxayda bo'lib o'tgan qonli voqidan keyin xitoyning barcha yirik shaharlardagi ishchilar, studentlar va mayda burjuaziya imperialistlarga qarshi ommaviy namoyishlar uyishtirdilar va tashqari ingliz va yapon mollariga baykon e'lon qildilar. 19- iyunda Gonkonda umumiy ish tashlash boshlandi: Gonkonning hamma ishchilari shaharni tashlab chiqdi. Kanton studentlari va ishchilari bilan birga katta namoyishi o'tkazdilar. Shamyang ingliz dengizchilari ko'p qon to'kib namoyishchilarni otdilar, buning natijasida xitoy xalqining qarshiligi yanada ortdi. Gonkon ishchilari Kanton ishchilari bilan birga stachka komitetini tuzdilar. Bu komitet imperializmga qarshi kurashning rahbar organi bo'lib qoldi. Kanton hukumati ish tashlagan ishchilarning hamda butun xalqning imperializmga qarshi kurashini quvvatlab Angliya bilan iqtisodiy munosabatlarni uzganini e'lon qildi.

Ikkinchi chjili- fityan urishi tomom bo'lgandan keyin fin Yuy- syan boshchiligidagi milliy armiyaning revalyutsiya yo'lini ko'zlagani ravshan bo'ldi. Bundan Duan Tsi- juy va chan Tszo- men juda rozi edi. 1925- yil mayda fityan armiyasi hukumatni qo'riqlashni bahona qilib katta harbiy qo'shilmalari Shanxayguanda o'tib milliy pozitsiyalarining bir qismini bosib oldi. Shanxay " 30- may " voqealari vaqtida fityanarmiyasi janubga yurib, ikki viloyatni Tsyansu va Anxug'yni bosib oldi. " 30- may " voqealaridan keyin implatlarning xitoy xalqlariga qarshi kurash yana kuchaydi, imperialistlar Fingyanga qarshi urish ochish uchun ig'vogarlik qila boshladilar Chjili militaristi Sun Chuan- fan xalq ommasining Fityanga qarshi kayfiyatidan foydalanib, o'zboshimchalik bilan o'zini besh viloyatga birlashgan armiyaning bosh qo'mondoni deb e'lon qildi va o'z qo'shinlarini Shanxay va Nankin yurishiga boshladi. Shuningdek U Pey- fu Chjili va Shanxay viloyatlarini o'ziga qarashli yerlariga aylantirmoqchi bo'lib va qulay paytdan foydalanib o'zboshimchalik bilan o'zini 14- viloyat birlashgan armiyasining bosh qo'mondoni deb e'lon qildi. Lekin u o'z maqsadiga erisha olmadi. Shu paytda fityan armiyasida ajralish ruy berdi. Otryadlarning bir qismi Sjan-Szomenga qarshi chiqdi va Dunbey milliy armiyasini yo'q qilishga Chjan Szo- menga yordam berish uchun o'z qo'shinlarini Manchasuriyaga olib kirdi. Chjan Szo- men va U Pey- fu bir- birovlarining gunohidan o'tib birlashdilar hamda chjili va xenan viloyatlaridagi milliy armiyaga uch tomondan hokum boshladilar. 1926- yil martda yapon kemalari Tyan- szinda hujum qilayotgan fityan armiyasining himoyasi bilan milliy armiyani artilleriya o'qqa tutdi, milliy armiya ham artillitiya otishmasi bilan javob berdi. Imperialistik davlatlar hukumat bilan qilingan muzokoralarga ultimatum tarzidagi talablar qo'ya boshladilar, bu esa Xitoy xalqini g'azablantirdi.

1926- yil 16- martda ommaviy miting va namoyishini o'tkazish uchn Pekindagi Tyananmin maydoniga aholini barcha tabaqa vakillari yig'ildi. Namoyishchi kallonalar hukumat

binosi oldidan o'tayotgan " Bitsin imperializm " , " yo'qolsin " Duan Si-juy degan ishoralarni barilla ovoz bilan aytdilar. Hukumatni qo'riqlovchi qo'shinlar namoyishchilarni o'qqa tutdilar.

Bu qonli voqealardan keyin bir oy o'tar o'tmas ikkita armiya fintyanga va chjili armiya hujumiga uchragan milliy armiya pekindan chekinishga va Nankou mudofasiga o'tishga majbur bo'ldi. Milliy armiyaning bosh qo'mondoni Fin Yuy- sen 1926- yil boshlaridayoq istifo berib Sovet Ittifoqiga jo'nagan edi. Milliy armiya Pekindan chiqib ketganda va U Pey- fu Duan Si-juyni yoqlamaganda aslida hukumat yo'q bo'lgan edi.

1926- yil iyunning oxirlarida Chjan Szo- men va U Pey- fu Pekinda uchrashib, milliy armiyani yana taqib qilmoqchi bo'ldilar. Avgust oyining o'rtalarida milliy armiya Nankoudan chiqib ketdi va Xuanxe daryosi burilgan joydan shimol tomonga chekindi. Shu vaqtda janub milliy hukumati o'zining shimolga yurishni boshladi, shuning uchun U Pey- fu shimolga yurish armiyasiga qarshi chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida darhol Xubeyga jo'nadi. 1926- yil 18- martda voqealardan keyin butun xitoy xalqi beyn militaristlari to'dasidan iborat feodallik hukumronligini ag'darishni talab qildi. Shu paytdagi revalyutsion vaziyat shu qadar yetilgan ediki, uni "Qurollangan rivalyutsion deb ta'riflash mumkin edi."<sup>5</sup>

4 milliy rivalyutsion armiyada komunistlar ayniqsa ko'p bo'lib, shimolga yurish armiyasining asosiy kuchini tashkil etadi. Komunist E Tin komondirlik qilgan alohida polk ayniqsa ko'p komunistlarga ega bo'lib shimolga yurishning boshidan oxirigacha hammadan ko'p qahramonlik ko'rsatdi. Shimolga yurish armiyasi yo'l taraddusini ko'rgan vaqtda, bu alohida polk armiyasining avangardi qilib qo'yildi va 1926- yil mayda o'sha polk Guandundan Xunanga hujum qilish uchun yuborildi, viloyat jang bilan olindi.

O'rtoq Mao Sze- dunning to'g'ri rahbarligi natijasida Xunan ishchi va dehqonlar oldidan katta kuch uyushtirib qo'yidilar shuning uchun shimolga yurish armiyasi bu kuchlarning yordami bilan Xunan militaristi Chjao Xen- ti qo'shinlarini tez orada tor- mor qildi va butun Xunan viloyatini egalladi. Shimol tomondan kelgan va frontga rahbarlik qilgan U Pey- fu shimolga yurish armiyasining qahramona harakatini to'xtata olmadi. E Tinning alohida polki Tineiso va Xeshensyao atrofidagi ikkala janglarda U Pey- funning asosiy kuchlarini tor- mor qildi va shimolga yurish armiyasining sentabrda Xankau, Xanyanni, oktabrda Uchanni ozod qildi, bu yerga birinchi bo'lib shuhrat qozongan alohida polk kelib kerdi.

Shimolga yurish armiyasi U Pey- fu va Sun Chuan- fanni tor- mor qilgandan keyin bir qancha vaqtgacha poylab turdi. U pey- funing asosiy kuchlari tor- mor qilingandan keyin Sun Chuan- fan shimolga yurish armiyasiga nisbatan dushmanlik ko'rsata boshladi. 1926- yil sentyabrning birinchi o'n kunligida shimolga yurish armiyasi Xunandan Fuszyanhdi. 1926- yil

---

<sup>5</sup> Xitoyning yangi tatixidan ocherklar. T- 1959y 94- bet.

noyabrda Sun Chuan fanning asosiy kuchlari Szyuzyan va Nanchan atrofida shimolga yurish armiyasi kuchlari tomonidan tor- mor qilindi.

1927-yil fevral oxirlarida Sun Chuan fanning qoldiq qo'shinlari Chjenszyan viloyatiga chikindilar. Mart boshlarida Sun Chuan- fan Shanxan Ninbo temil yo'lining sharqiy qismini qo'riqlashni Chjan Szo- men tomonidan yuborilgan chjili shandun qo'shinlariga topshirdi. 1927-yil martning oxirgi un kunida Shanxay ishchilari qo'zg'alon ko'tarib, shu bilan shimolga yurish armiyasining yutig'iga javob berdilar. Yanszi daryosi buylab sharqqa harakat qilayotgan shimolga yurish armiyasi Nankinni ham ozod qildi. Endi janubi- sharqiy Xitoyning besh viloyatini milliy rivalyutsion armiyasi to'la egallagan edi.

Shimolga yurish armiyasining tez orada g'alaba qozonishi ko'p jihatdan urish harakatlari zonasiga ishchi va dehqonlar harakatining o'sishi natijasi edi. Shu bilan birga shimolga yurish armiyasining g'alabasi ishchi dehqonlar harakatining keng ko'lamda rivojlanib ketishiga yordam berdi. Shimolga yurish armiyasi ishg'ol etgan rayonlarning ishchilari ish tashlash kurashini boshlab yubordilar kontrevolyusiya kuchlarini bostirish maqsadida soqchi o'ratlar tuzildi. Hamma joylarda dehqonlar yer ijarasi xaqi va qarz prosentini kamaytirishni talab qildilar, tuxao va leshenni tor- mor qilish uchun o'zlarini mudofa qilish ortyatlarini tuzdilar. 1926- yil qishida Uxandagi kasaba soyuz a'zolari 300- ming kishidan oshdi. Xunan va Xubey viloyatlari uezdlardagi dehqonlar soyuzining a'zolari bir necha million kishiga yetdi.

1927- yil 03- yanvarda shimolga yurish armiyasining g'alabasini nishonlash uchun Uxan aholisi barcha tabaqalarning vakillari miting o'tkazdilar: Namoyishchilar ommasi Szyanxaguan va Xankou oldidan o'tayotganida ingliz dengizchilari hech qanday sababsiz mushtlasha boshladilar, buning natijasida to'qnashish bo'lib ikkala tomon ham bu janjalga aralashdi.

Komunist Lyu Shao rahbarligidagi Uxan ishchilari jangda kirdilar. Ishchi soqchilar ingliz imperialistlari politsiyasini siqib chiqardilar. Xankoudagi ingliz konsessiyasi qo'lga oldi. Aholini har xil tabaqa vakillari darhol shoshilinch kengash chiqarib, shimolga yurish armiyasidan ingliz konsessiyasi territoryasiga kirishni va u yerdagi npolitsiyani hamda qurolli " ko'ngillilar otryatlari" ni haydab chiqarishni so'rashga qaror qildilar. Shu vaqtda milliy hukumat Kantondan Uxanga ko'chgan va xalq talabiga muvofiq Xankoudagi ingliz konsessiyasi Xitoyga qaytarib olinganini rasmiy e'lon qilgan edi. 1927- yil 06- yanvarda Szyuszyanda ham ingliz dengizchilarining xitoy ishchilarini tishlariga doir voqealar bo'lib o'tgan edi. Milliy hukumat Szyuszyandagi xalq ommasi talabiga muofiq Szyuszyan ingliz konsessiyasini tortib olib uni xalqqa qaytarib berdi. Xitoy xalqining revalyutsion kuchlari imperialistik obro'siga birinchi marta jiddiy zarba bo'ldi.

1926- yil oktabrda va 1927- yil fevral va mart oylarida Shanxay ishchilari xitoy kommunistlari rahbarligida miyasi yordam berish maqsadida uch marta qurolli qo'zg'alon ko'tardilar. Yetarli tayyorgarlik ko'rilmagani va Sun Chuan- fanning qattiq jazo choralari sababli dastlabki ikki qo'zg'alon muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Ammo xalq ommasi Sun Chuanfanga qarshi kurashni yanada kuchaytirdi, ularning revalyutsion aktivligi kundun- kunga oshib bordi. Shanxay ishchilari avvalgi ikki mag'lubiyatning saboqlarini hisobga olib, uchinchi qo'zg'alonga planli ravishda tayyorgarlik ko'rdilar. Birinchi galda ishchilar shahar aholisi vakillarining vaqtlilik konferensiyasini chaqirib, aholining revalyutsion kayfiyatdagi barcha doiralari bilan birlashdilar. Bu konferensiya xalq hokimiyatining nishonasi bo'lib, juda katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

1927- yil 21- martda Shanxay kasaba soyuzlari bosh soveti umumiy ish tashlashga chaqirdi, bu ish tashlashda qatnashchilarning soni 800- ming kishigacha yetdi. Shundan keyin kommunistlardan Shjou En- laet, Lo U-nun va Chjao Li-yan rahbarligidagi ishchi qurolli qo'zg'alon boshladilar. Kechayu kunduz shiddatli ko'cha janglari davom etdi natijada Chjabey rayonini egallab turgan chjili shandun armiyasi tor- mor qilindi. Shunday qilib, xitoy revalyutsiyasi tarixiga shonli sahifa yozildi.

Revalyutsiya avj oldi, ammo revalyutsiya bazasi jiddiy mustahkamlanmagan edi. Kompartiyaning o'sha vaqtdagi rahbari Chen Du-syu revalyutsiyaga rahbarlikning ahamiyatiga to'g'ri baho bermadi. U demokratik revalyutsiyaga rahbarlikda ishchilar sinfining roliga to'g'ri baho berilmadi va bu masalada kapitulyantlik pozitsiyaga bo'ldi. Uning butun diqqat etibori gomindan bilan hamkorlik o'rnatishda edi. U revalyutsiyaning xaqiqiy dushmanlariga qarshi kurashda promtatiatning chinakam ittifoqlarni ko'rmasdi. U shimolga yurish janglariga rahbarlik qilishda kommunistlarning roli masalasida ham kapitulyantlik tarafdori bo'ldi. Xaqiqatan shimolga yurish davrida kommunistlar armiyada siyosiy ish olib borsalar ham, lekin kompartiyaning rahbar organi armiyaga va kommunistlarning armiyadagi ishga yetarli darajada ishchi shunday ahvol ruy berdiki butun armiya sostavaga kommunistlar ta'sirida bo'lgan chinakam revalyutsion harbiy qismlar nihoyat oz edi. Shimolga yurish armiyasidagi haqiqiy hokimiyat avvalgidek eski ofeserlar qo'lida asosan o'ng gomindanchi, fitnachi usha vaqtdagi milliy revalyutsion armiyaning sobiq bosh qo'mondoni Chan Kay- shi qo'lida edi. Makkor imperialistlar vaziyatni juda tez tushundilar.

Chan Kay- shi bilan birlashdilar Pomishchilar va kompradorlar ham Chan kayshnga tez avj olib ketayotgan xitoy revalyutsiyasini ichidan buzishni yukladilar.

Shimolga yurish boshlanishi bilanoq mamlakatnina hamma joylarida ommaning rev kurashi kuchaydi Xunan viloyatida dehqonlar harakati ayniqsa tez avj oldi. 1926- yil oxirlaridan boshlab to 1927- yil boshlarigacha bir necha oy davomida qishloqlarda shu vaqtgacha misli

ko'rilmagan ulug' dehqonlar revalyutsiyasi boshlandi. O'z yer mulkida yashab kelgan va dehqonlar harakatining avj olganidan vahimaga tushgan pomishchiklar ko'plab shaharlarga qochdilar, u yerda dehqonlar to'g'risida yolg'on ovozlari tarqatadilar. Shaharlarda guyo dehqonlar harakati turmushning hammaga rasm odat bo'lib qolgan asoslarini buzayotirlar degan fikr tarqaldi.

Xolbuki, aslida qishloqlarning demakratik kuchlari qishloq feodal kuchlariga qarshi chiyiqgan edilar va dehqonlarning qilgan ishlari xaqli edi, demakratik revalyutsiyaning muvaffaqiyatli davom etishi uchun qishloqlarda jiddiy o'zgarishlar ruy berishi lozim edi. Gomindanning o'ng qanot reaksiyon tuhmatchilari ta'sirida qolgan Cen Du-eyu dehqonlar ommasining ulug' revalyutsion kurashini qo'llab quvvatlashga botina olmadi. U gomindanga moslashib, dehqonlardan ishchilar sinfining eng muhim ittifoqchisidan voz kechishni avzallik ko'rdi, shu bilan ishchilar sinfi va kompartiyani dehqonlardan ajratdi. Gomindaning reaksiyon boshliklari- revalyusion yuksalish davrida rahbarlik ishlariga suqulib kirgan Chan Kay- shi va Van Szin-vey bir ilojinin topib g'alayon chiqara oldilar va shu bilan revalyusioniyaga xoinlik qildilar.

Gomindan reaksiyon to'dasi. Sun Yat- sen gomindatuzdi. Dastavval Sovet Ittifoqi bilan ittifoq tuzish Xitoy kommunistik partiyasi bilan ittifoq tuzish hamda ishchi va dehqonlarga yordam berishga qaratilgan uchta yagona siyosat amalga oshiriladi, gomindan bilan kompartiya birlashadi va Xitoyda umumiy milliy yagona revalyutsionfront barpo etiladi, deb tahmin qilingan edi. Gomindan qaytadan tashkil qilingandan keyin ikki qismga bo'lindi, ya'ni uchta yagona siyosat tarafdori bo'lgan so'l gruppaga deb atalgan revalyutsion qismga va reaksiyon o'ng gruppaga ajraldi. Reaksiyon o'ng gruppaga uchta yagona siyosatda qarshi chiqdi va bu siyosat niqobi ostida yashirinib, hokimiyatni qo'lga olish va keyinchalik uchta yagona siyosatni buzish uchun qulay paytdan foydalanishni ko'zlatdi.

Dastavval Chan Kay- shi mansabparastlik maqsadlarini ko'zlab Sun Yat-senga yaqinroq bo'lishga o'rindi. Gomindan revalyutsion harbiy maktab tashkil qilayotgan davrda Sun Yat- sen va Lyao Chjun- kay bu maktabning boshlig'i vazifasiga Chan Kay- shini tavsiya qilishdi, chunki u Yaponiyada harbiy ma'lumot olgan edi.

Chan Kay- shi mansabga erishish uchun qaysi yo'lni tanlash to'g'risida tanlab, ikkilanib hatto bu vazifadan bosh tortdi. Lyao Chjun- kayga xat yozib o'zining uchta yagona siyosatga qo'shilmaganini bildirdi. Ammo revalyutsion oqim va uning nyagona uchta siyosati tarafdori niqobini kiyib kontrevolyusiyani uyishtirish uchun o'zining revalyusion lager ichidagi mavqeidan foydalanmoqchi bo'ldi. 1925- yil avgustda Lyao Chjun- kayga suy qasd qilindi. Revalyutsion xalq ommasi revalyutsion lagerga suqilib kirgan reakseyunerni qattiq javobgarlikka tortishni talab qildi.

Chan Kay- shi o'z mavqei Dan foydalanib va o'zini revalyusion gruppasi tarafdori qilib ko'rsatib, bu voqeani tekshirishdan o'zini chetga tortibgina qolmay hatto harbiy ishlarga rahbarlikni ham o'z qo'liga oldi. 1926- yil martda Chan Kay- shi o'z makkorlik planlarini eng miqyosda amalgam oshira boshladi. U o'zi uyishtirgan hiyla nayranglar bilan komunistlarni harbiy maktabdan va 1- milliy revalyutsion armiyadan kitishga majbur etdi. Shu bilan komunistlarning armiyadagi pozitsiyalarini susaytirdi. 1926- mayda gomindan markaziy kometiti majlisida partiya vazifalarini taqsimlash to'g'risidagi proektni oldini surdi. Ya'ni shunday tartibni qonunlashtirdiki, komunistlar gomindan Markaziy Kometiti bo'limlarida boshvazifasida ishlay olmas edi, shunday qilib gomindanning rahbar organlarida kompartiya pozitsiyalari susaytirildi.

1926- yil noyabrda Shimolga yurish armiyasi Nanchan shahrini oldi, bu yerda Chan Kay- shi bosh qumondon shtai bilan birga joylashadi. U imperialistlarga taslim bo'lishga tayyorlanib, komunistlarning dushmani o'ta ketgan fitnachi Day Szitaoni Yaponiyaga yubordi. Xuddi shu vaqtda naxayda chiqadigan ingliz gazetalarida Sun Yat- senning yagona uchta bsiyosatidan voz kechishga qaratilgan reaksiyon gomindan to'dasini qullab quvvatlovchi fikrlar bosilib chiqdi.

Xankou va Szyuszyandagi angliya konsessiyalari xalqiga qaytarib berilgandan keyin amerika va ingliz imperyalistlari bunday voqealar boshqa joylarda ham ruy berishidan hadisirab shanxayda o'z qo'shinlarini ko'paytirdilar. Shunday qilib chet el imperialistlari va gomindanning reaksiyon gruppasi bir- biriga yaqinlashdi, ular o'rtasida til birlashtirish bo'lib o'tdi. Shu davrda Shanxaydagi komprador va moliya machnati Yuy Lya- sin Chan Kay- shi bilan shaxsan uchrashishi uchun Nanchanga keldi.

